

**Tursunoy YANDASHEVA**

# **MURAK SADOSI**

*(She'rlar)*



**“Buxoro” nashriyoti-2005 yil.**

## OQ YO'L, TURSUNOY!


Tursunoyning she`rlarini o`qisangiz,  
 yangi biz umidli qalamkash etishib  
 kelayotganiga guvoh bo`lasiz. Biz  
 she`zida u shunday haroratli  
 misralarni bitgan:

*Toshlar-ku, eridi haroratingdan,  
 Yuraklar titradi mahoratingdan,  
 Tanim qaltiradi jasoratingdan,  
 Ilhom parilari, bo`ling hamrohim!*

Qalamkash qiz Shofirkondagi 27-son  
 mактабning 6-sinf o`quvchisi Tursunoy  
 Yandashevaga oq yo`l tilaymiz. Uning  
 mashqlarida samimiyatni, beg`uboз  
 bolalikni uchratish mumkin. Bu degani  
 Tursunoyning she`rlari kamchilik-  
 lardan xoli degani emas. Ozruغا ayb  
 yo`q deydilar. Olloh she`riyat  
 dargohiga qadam qo`yayotgan  
 qizaloqni omadini bersin.

Dilmurod Jabbor.

O`zbekiston yozuvchilar uyushmasi a`zosi.



10 31458  
09,

## **SH`ERIMGA**

Taqdirimda sening timsoling ko`rib,  
Lolu hayronlikdan o`zimni tutib,  
Bir qalamga qarab, dardimni yutib,  
Oq qog`oz va qalam, bo`ling hamrohim!

Toshlar-ku, eridi haroratingdan,  
Yuraklar titradi mahoratingdan,  
Tanim qaltiradi jasoratingdan,  
Ilihom parilari, bo`ling hamrohim!

Yo`limda ko`z ochdi bir munglig` sado,  
Tanburimdan uchdi o`tli bir navo,  
Yozib-yozolmadim-dardlarim dunyo.  
Sh`eriyat kuylari, bo`ling hamrohim!

G`azal mulki ichra Navoiylar ham,  
Bulbulni lol etgan sehrli qalam,  
Sensiz qanday yashay, sh`erim-jonginam,  
Nazm peshvolari, bo`ling hamrohim!

## **O`ZBEK QIZLARIGA**

Qotibdimi ayrim qizlar ensasi,  
Bilib qo`ying, sochlар belning egasi,  
Afsus chekmang bugun kesib, ertasi  
Sochingizni kesmang, o`zbek qizlari!

O`zbekning urflarin o`zbek biladi,  
Gar o`zbek bo`lsa, o`zbekchilik qiladi.  
O`zbekning qizlari soch o`stiradi,  
Sochingizni kesmang, o`zbek qizlari!

Soch o`stirish momolarim tomonidan,  
Ollohim asrasin o`zi yomondan,  
Bitta tilagim bor, ha ushbu ondan,  
Sochingizni kesmang, o`zbek qizlari!



Barchinlarning urfi bo`lmasin deb xor,  
 Kumusbibilarning ruhi aslo zor,  
 Nodira-yu, Zulfiyalar hali, hamon bor,  
 Sochingizni kesmang, o'zbek qizlari!



## **AYOL**

Ming bir dardga ko`msa bu ko`hna dunyo,  
 Ming jarga qulatsa yolg`iz boshini,  
 Bardoshin sinasa ajal yo xudo,  
 Ko`zin qarosida qotgan yoshini.

Ayolni qiynamang, ayol farista,  
 Ayolga ta`rif yo`q, ojizdir-u lol.  
 U tufayli kulbang-uying sarishta  
 Ayol-bu osmonda porlagan hilo!

Ayoldir muqaddas-ayolga e`zoz,  
 Ayol`bu-mo`tabar, fidokor ona.  
 Singil yo xolami, yanga yo ustoz,  
 Ayol bu senga yupanchdir-opa!

Ayolning oyog`i ostida jannat,  
 Ayolda gullaydi, ayolda iffat.  
 Nazokatli ayol-o`zbegim faxri,  
 O'zbek ayolida yashnar nafosat.

Ayolning boshida yaraqlar do`ppi,  
 Egnida atlasdan tikilgan ko`ylak.  
 Millati ufurar, rayhon hididan,  
 Ayol bu farishta, yoxud bir malak.

Ayolni yaratgan, OLLOH TAOLO,  
 O`ylabdi: balki bu-bo`lsa-chi. ertak!  
 Shunda ta`qiqlabdi erkaklar uchun,  
 Ayol bu-erkakka emasdur ermak!



## **ERTAKLARIM**



Sahrolarda qolib ketgan erkalarim,  
Ko'nglimdan joy olib ketgan egalarim,  
Sehr senda, yshnab ketdi bo'stonlarim,  
Armon bo'lib qolding menga, ertaklarim!

O'zing kitobimning varaqlarida,  
Meni tashlab ketding, aytgil qayoqlarga,  
Seni deb bosh egdim necha oyoqlarga,  
Armon bo'lib qolding menga, ertaklarim!

Goh buvimning tillarida aylanarding,  
U tutilsa o'zing kelib qaytalarding,  
Tutib meni o'zginangga boylanarding,  
Armon bo'lib qolding menga, ertaklarim!

Tushlarimda mazza qilib mizg'ir edim,  
Xayolimda sen tomonga izg'ir edim,  
Ertak bilan ovunuvchi bir men edim,  
Armon bo'lib qolding menga, ertaklarim!

Ko'z yoshlарim sarg`aytirdi firoq dardi,  
Mardlikkayu sadoqatga sen o'xsharding,  
Go'yoki toptaldi Tursunoylar qadri,  
Armon bo'lib qolding menga, ertaklarim!

## **ONAMGA**

Ba'zida daftaram varaqlaysiz jim,  
O'ksinib qo'yasiz, bo'lasiz dilxun.  
She'r yozsam o'xshamas, sira o'xshamas  
Shoирга yo'l bo'lsin Sizni kuylash-chun.

Onajon, deymanu to'xtab qolaman,  
Tiqilganday bo'lar bo'g'zimda bir un.  
Bilaman baribir ojiz bu qalam,  
Shoирга yo'l bo'lsin Sizni kuylash-chun.





Ayting, bol so'zingiz bormidir narxi,  
Chehrangizday latif, jamoli gulgun.  
Mehringizday aziz muqaddas tuyg'u  
Shoирга yo'l bo'sin Sizni kuylash-chun.



Zahmatingiz singgan, buni bilsam ham.  
Ba'zida bo'lasiz meni deb horg'in.  
Uzr so'rash uchun she'rim, bahona.  
Shoирга yo'l bo'lsin Sizni kuylash-chun.

Qo'lingizga ba'zan daftaram olib.  
O'ksinib qo'yasiz, bo'lasiz dilxun  
Rostini aytaymi, sizga, onajon,  
Shoирга yo'l bo'lsin Sizni kuylash-chun.!

## **BAHOR**

Mana yana bahor keldi elimga,  
Men sevgan lola-yu qizg'aldoq bilan.  
O'sha jilvasiyu, ifori, nozi,  
Nafosati bilan, ko'klami bilan.

Mana yana bahor keldi elimga,  
Go'zallik bag'rida mavjlanar nahor.  
O'sha qaldirg'ochi-elchisi bilan,  
Bugun ostonamda turibdi bahor.

Ko'klamoyim keldi yomg'irlar bilan,  
Maysalar yashnadi borliqni o'rab.  
Quyoshning nuridan yayraydi bu tan,  
Turnalar uchdilar nigohim cho'lg'ab.

Mana yana bahor keldi elimga,  
Tog'larda lolalar yondilar lov-lov.  
Yurakka bir cbo'g'ni solib qo'ydilar,  
Yuragimda yondi o'chmas bir olov...



## O'ZBEKNING SODDA QIZIMAN.



Men bir.sodda o'zbek qiziman  
Biri kam dunyoda orzularim ko`p.  
Xalqimning gulxanday o'chmas iziman,  
She`riyat sabosi, yuzimdan kel, o`p!

Dilimda porlagin nurquyoshdek sen,  
Vujudim yoritgil shamchiroq bila.  
O`zimga qo'yibman katta shartni men  
El dardin olayin she`rlarim ila.

Men bir shundayin shoira bo`lay,  
Dunyo nazar solsin misralarimga.  
Xalqimning ertakli tug`yoni bo`lay,  
Hayot ibrat olsin satrlarimdan.

Do`s-t-u dushmanlarga qalam bas kelsin,  
Men xalqim koriga yarayin doim.  
Tinch bo`lsin yeru-zamin, samolar,  
Bu mening yagona-tanho orzuim.

Zulfiya momomdek shoira bo`lay,  
Satrlarim yuraklarga yetib borsin.  
Hayot bor ekan, birdir tilagim,  
Xalqimning ko`nglida manguga qolsin!

## XAYR, MAKTABJON!

Yorug' maskan bo`lib bag`ringga olding,  
Gohi tug`yon, gohi o`tlarga solding,  
Sen bugun hammadan aziz bo`p qolding,  
Jannatiy maskanim, xayr, maktabim.!

Achchiq faryodlarim, achchiq bir tizim,  
Ilk qadamim senda, ilk senda izim,  
Har chog`da onamdek deding-ku, qizim,  
Jannatiy maskanim, xayr, maktabim.!





Saboq oldim senda, orzularim mo'l,  
Ochiqdir men uchun endi barcha yo'l,  
Nurli, kichik diyorum hamma vaqt ham bo'l  
Jannatiy maskanim, xayr, maktabim.!

Hayot charxpalakdek aylanar ekan,  
G'am-u shodliklarga ham belar ekan,  
Tursunoylar yana kelar ham ekan,  
Jannatiy maskanim, xayr, maktabim.!

Ko'nglimda men sendan kechmasman aslo,  
Aks-sado bersin g'azalim har yon.  
Quyoshli makonim sen menga tanho,  
Jannatiy maskanim, xayr, maktabjon!

Yorug' maskan bo'lib bag'ringga olding,  
Hatto sho'xliklarim kechirib qolding,  
Endi ko'zlarimga yoshlarni solding,  
Gulshanim, jannatim, xayr, maktabim.!

## **NAVRO'Z**

Bayram shukuhidan shodon bu dillar,  
Bahor olib keldi bag'rida gullar,  
Sizni qutlab qolar shunday satrlar,  
Navro'zing muborak, ey, ona xalqim.!

Boychechak ochilib, barq urar chechak,  
Gul yuzin ochibdi bugun moychechak,  
Yangi kunda qiling yangi bir tilak,  
Navro'zing muborak, ey, ona xalqim.!

Sumalak, halimlar qaynab qozonda,  
Kelinglar, yayraylik shunday bazmda.  
Qo'llar ko'ksimizda, doim ta'zimda,  
Navro'zing muborak, ey, ona xalqim.!

Hayot o'zi go'zal, to'ymarysan yrshab,  
Har inson yayrasin oshini oshab,





Cbo'qqilar tomonga qadamlar tashlab,  
Navro'zing muborak, ey, ona xalqim.!



Mana chaqaloqning mayin ovozi,  
Murg'akkina dilda hayotning toti.  
Bu ham bo'lsa Navro'z, Navro'z in'omi,  
Navro'zing muborak, ey, ona xalqim.!

### **VATAN**

Yellarda uchadir mayin sabolar,  
Emanlar umriga bo'ylashgan, vatan.  
Mudroqman, uyg'oqman va men sayroqman,  
Azim chinorlarga tenglashgan, Vatan.  
Beshiging quchgan-ku, Temur, Navoiy,  
Tarix ildizlaring bormoqda yashnab.  
Boburin sog'inar Andijonlar ham,  
Poyingda chamanlar bormoqda gullab.  
Ulug'bek yerlaring ziynat deb bilgan  
Qalbimda nur sochgan chirog'im, Vatan.!

### **TIKAK**

Totli umr bo'lsin men kechgan kunlar,  
Ulug' davralarda kulsin omadim.  
Rohatbaxsh lahzalar, baxtiyor onlar,  
Xushbo'y shabadalar silasin sochim.

Umr oqar ekan-toshqin daryoday,  
Nasibamni oshay mingga yetganda  
Tangriga beedad shukrona aytay,  
Oy kabi jamolin ko'rsatganida.

***Muhammad Yusuf xotirasiga bag'ishlab...***



Har bir she'ringizni o'qirman jo'shib,  
Havas ham qillardim quvonchim toshib,  
Yashab o'tdingizmi hayotdan shoshib,  
Netayin, ketdingiz ko'zga yosh solib,  
She'ringiz o'qiydi Tursunoy yonib.





Jarohat yetkazib ushbu ko`nglim-a,  
 Olovli yurakka o`t soldingiz-a,  
 Mangulik bag`riga yo`l oldingiz-a,  
 Nega siz ketdingiz ko`zga yosh solib,  
 She`ringiz o`qiydi jajji qiz yonib.



Tirik bo`lsangiz, gar shogird bo`lardim,  
 Sizga o`xshab she`rni go`zal qilardim.  
 Shunda ustozim deb ayta olardim,  
 Ammo, ketdingiz-ku, ko`zga yosh solib,  
 She`ringiz o`qiydi jajji qiz yonib.

Bu dunyo ishlari telba-teskari,  
 Har uyg`ongan giyoh uzgan singari.  
 Sizga bag`shidadir yurak gullari,  
 Qabringiz tomonga yo`l olar bo`lib,  
 She`ringiz o`qiydi jajji qiz yonib...

### **KO`KLAMOYIM**

Ko`klamoyim, tuzingdan ber, totayin-a,  
 Chimlaringga boshim qo`yib, yotayin-a,  
 Bulog`ingga chopib boray, yo`q-demagil,  
 Labim bosib, xayollarga botayin-a.

Sendan ajib, xushbo`y tarovat taralar,  
 G`aroiybotlarning bari senda yaralar.  
 Nigohlarning bari senga qadalar,  
 Ko`klamoyim, tuzingdan ber, totayin-a,

Ko`katlar orasidan ko`rinmas izing,  
 Umikan saqin havoyi qizing,  
 Mast qilar kelganda dimoqqa ising,  
 Ko`klamoyim, tuzingdan ber, totayin-a...



## **OTA MEHRI**

Qaynoq dilimga ham o'zingiz otash.  
 Nurli ko'zingizda porlaydi uchqun  
 Gar o'sib borayotgan bo'lsam ham bu dam,  
 Sizning mehringizga suyandim tun-kun.

Mehr niholida bo'ldim-ku yaproq,  
 Dard-alam qayg'uga o'zingiz malham.  
 Siz faxrim, ko'zimda qorayu va oq.  
 Sizga teng kelolmas baxtu iqbol ham.

Agar mehr nima deganlarida,  
 Sizning kulib boqqan ikki ko'zingiz.  
 Va yana derdimki, hardam hamisha,  
 Menga quvvat bo'lgan shirin so'zingiz.

Mehr bu boshimda bir soyabondek.  
 Har balo qazodan asraguvchimsiz.  
 Dilimda agar bir yog'du ham bo'lsa,  
 Otajonim, bugun otash o'zingiz.

## **ARMON KO'CHALARI**

Bu bog`lar bir kuni, meni unutib,  
 So`qmoqlarin shaksiz o`zgaga ochar.  
 Bahor shamollari yonimdan o'tib,  
 Armon qo'llarimdan bir kuni tutar.

Bu tog`lar bir kuni meni unutib,  
 Tanish yo'llarini bir kuni yopar.  
 Armon ko'chalari, boshda charx urib,  
 Alam qo'llarimdan bir kuni tutar.

Bu gullar bir kuni meni unutib,  
 O'z ifor, nozini mendan qizg'anar.  
 Shabnamlar qo'nmaydi ko'ngil guliga,  
 Armon ko'chalari bag'riga chorlar.



Bu hayot, bu olam meni unutib,  
 Bu dunyo bir kuni mendan ham kechar.  
 Tug'yon-azoblari bir kuni ezib,  
 Armon qo'llarimdan bir kuni tutar!.



### **BIR KUNI**

Bir kun kelib meni iqbolim chorlar,  
 Orzularim boshimni silaydi faqat..  
 Satrlar oqadi nur, yog'du sochib,  
 Bir kuni shoira bo'laman, albat!

Bir kun kelib qalam ushlagan bu qo'l,  
 Qog'ozga og'adi kuch topolmay jim.  
 Lek nomim yangraydi har bir qalblarda  
 She'r bilan tutashar bir kuni qalbim.

### **QO'RQUV**

Olis osmonlardan meni sog'ingan,  
 Jajji qo'llarimda yulduzlar porlar.  
 Dil sog'ingan o'sha orzular sari  
 Bir qo'rquv-hayajon o'ziga chorlar.

Qo'rquvan, tanholik qo'ynida yolg'iz,  
 Zulmatlar qoplagan zulmat dunyodan.  
 Qo'rquvan, onajon, bir kuni sening,  
 Qop-qora ko'zingda yosh ko'rishimdan.

Qo'rquvan, eh, munglig' ko'zlarin aro,  
 Oydek yuzlaringga ajin tushishdan.  
 Chehrangda g'uborlar, kulgung o'rnini,  
 Munglig'lik bag'riga olib qochishdan.

Qo'rquvan, qo'rquvan, ishon, onajon,  
 Tim qora sochlaring oqarishidan.  
 Tishlaring to'kilib, beling bukilib,  
 Hassaga suyanib qolishlaringdan.





Qo`rqaman, yomonlar guldek nomingga,  
Tuhmat toshlarini otishlaridan.  
Qo`rqaman, qo`rqaman, juda qo`rqaman,  
OLLOHning qahriga botishlaringdan.!



## **O`ZBEKNING OYBEGI**

Shamollar essa-da, "Na`matak" sokin,  
Endi chayqalmaydi hu, baland tog`da,  
"Tog` sayli" kutadi bizni o`rtoqlar,  
"Navoiy" qadami tekkan so`qmoqda.

Tabiat so`roqlar, mungli va sokin,  
"Qutlug qon" to`xtadi bir kuni, evoh.  
Qizg`aldoqlar seldek ko`z yoshin to`kib,  
Olamni yoritdi bir oftob nogoh.

## **TO`LIN OY**

O, to`lin oy, to`lin oy.  
Xolday misol dog`ing o`zim  
Kelinchakdek bo`lib go`zaloy.  
Qaraganda qamashar ko`zim.

O, to`lin oy, to`lin oy.  
Osmoningda yulduzing o`zim.  
Yulduz emas, balki qunduzoy.  
Olis manzilingga yetarmi so`zim.

O, to`lin oy, to`lin oy.  
Kech tunlarda hamrohing o`zim.  
Men uchun sen latofatga boy,  
Qadamimda poylaysan izim.

O, to`lin oy, to`lin oy.  
Ko`kdagi suluvdek husning men o`zim.  
Tiniq nurlaringni tutmagin darig`,  
Toki senga qarab, qamashsin ko`zim.!



## **SHE'R YOZGANIMDA**

Salqin shabadalar, subhidam,  
Men xayollar bag'riga cho'mdim.  
Oppoq tongning ta'riflarini,  
Yuragimga, bag'rimga ko'mdim.

Ne bitsam ham, madh etsam neni,  
Yurt ko'zgusi yo ona qalbi.  
Hammasinga ko'ngil jo'sh urar,  
Misralarning qatori ortdi.

Menman o'sha porlagan yulduz,  
Xayollarim mayjida oqqan.  
Menman o'sha osmonda kezgan,  
Manzillarga jilmayib boqqan.

Shunday o'y-la qalam yurgizib,  
Qofiya, vaznlar qo'shilib kelib,  
Ulkan yelkasiga ortib ma'nolar,  
Tong shamoli keldi yonimga yelib.

## **GULZORDAGI GULLARIM**

Turli-tuman gullarni,  
Hidlab ko'rgim keladi.  
Ulardagi chiroyni  
Sizda ko'rgim keladi.  
Gulzordagi gullarim,  
Sizni juda sevaman.  
Hidingizdan mast bo'lib,  
Mehr-suqla boqaman.  
Onajon, bu gullarni,  
Sizga hadya etaman.  
Ular tarovatini  
Yuragimda tutaman.

## **SOG'INCH**

Orzularga bog'lab xayollar,  
Tong ottirar qaldirg'ochilarim.  
Sog'inch ila kelgan bu kunni,  
Ilhaq bo'lib kutgan kunlarim.

Vaqt o'tadi kun sayin emas,  
Daqiqalar sanaydi oh-voh.  
O'sha sirli armonli tunlar,  
Bedor o'tmoq nahotki gunoh.

Kuz keladi, xazon to'kilar,  
Xayrashuv onlari keldi.  
Endi quvonch tortib nariga,  
Ko'zda yoshu, g'am yana keldi.

Yo'q, bu onlar o'tib ketar tez,  
Tushkunliklar qoladi dog'da.  
Bahor kelar, hademay ko'klam,  
Mavjilanadi har bir butog'da.

## **TO'RTLIKlar**

Bor ekan dunyoda tirnoqqa zorlar,  
Hatto daryolar ham irmoqqa zorlar.  
Bevaqt yog'mas hatto qoru yomg'ir ham,  
Yaxshi-yu yomonlar dunyoda borlar.

\*\*\*

Taqdir yo'llari ham bir kun kesishar,  
Necha yillarning ham salomin eltib.  
Diydor ko'rishadi tanish chehralar  
Xotiralar qalbda tag'in ko'z ochib.

\*\*\*

Ota-onang rozi qil, singlim  
Duolari oltindan qimmat.  
Oq fotiha bersin, ilohim,  
Yaxshililing qilmagin minnat.

\*\*\*

Kitob o'qing, kitob sizga do'st  
Yoki sirdosh bo'la oladi.  
Shuni biling bir kun u albat  
Qadrdon do'st bo'lib qoladi.

## MUNDARIJA

|   |    |
|---|----|
| She'rimga.....                            | 3  |
| O'zbek ayoli.....                         | 3  |
| Ayol.....                                 | 4  |
| Ertaklarim.....                           | 5  |
| Onamnga.....                              | 5  |
| Bahor.....                                | 6  |
| O'zbekning sodda qiziman.....             | 7  |
| Xayr, mакtabjon!                          | 7  |
| Navro'z.....                              | 8  |
| Vatan.....                                | 9  |
| Tilak.....                                | 9  |
| Muhammad Yosuf xotirasiga bag`ishlab..... | 9  |
| Ko'klamoyim.....                          | 10 |
| Ota mehri.....                            | 11 |
| Armon ko'chalari.....                     | 11 |
| Bir kuni.....                             | 12 |
| Qo'rquv.....                              | 12 |
| O'zbekning Oybegi.....                    | 13 |
| To'lin oy.....                            | 13 |
| She'r yozganimda.....                     | 14 |
| Gulzordagi gullarim.....                  | 14 |
| Sog'inch.....                             | 15 |
| To'rtliklar.....                          | 15 |

Terishga berildi 10.06.2005 yil. Bosishga ruxsat etildi 20.06 2005 y. Bichimi 1/16. 60x90, ofset qog'izi. Shartli bosma tabog'i 0,93. Nashr tabog'i 1,0. Adadi 500. Buyurtma 1383.

"Buxoro viloyat bosmaxonasi" MCHJsida terildi va chop etildi.

"Buxoro viloyat bosmaxonasi" MCHJ I. Mo'minov ko'chasi 27-uy.